



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETINING TRANSFORMATSIYA VA XALQAROLASHUV BO‘YICHA

KONSEPSIYASI

Ushbu Konsepsiya va 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan Strategik dastur 2024-yil 11-iyundagi Kuzatuv Kengashining 6-sonli majlisi hamda Universitet Kengashining 2024-yil 29-iyundagi 11-sonli majlisida ma’qullangan va tasdiqlangan.

Toshkent – 2024

*“Taraqqiyotning tamal toshi ham,
mamlakatni qudratli, millatni
buyuk qiladigan kuch ham bu –
ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir”*

Shavkat Mirziyoyev

I. STRATEGIK MAQSADLAR VA USTUVOR YO‘NALISHLAR

Sharqshunoslik sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, ilm-fanni jadal rivojlantirish, professor-o‘qituvchilarning salohiyati, pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borish, talaba-yoshlarni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalashni takomillashtirish; dunyoning eng nufuzli Top-300 oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatida turuvchi universitetlar tajribasi hamda QS va THE xalqaro reyting agentliklarining fan yo‘nalishlariga moslashtirgan holda ta’lim jozibadorligini oshirish, xalqarolashtirish strategiyasini amalga oshirish maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetini yangi O‘zbekistonga mos bo‘lgan zamonaviy ta’lim va ilm-fan dargohiga aylantirish strategik maqsadlari asosida ushbu **Konsepsiya** ishlab chiqildi.

Zamonaviy sharqshunoslik konsepsiyasi asosida universitetning yangi tuzilmasi ishlab chiqilib, boshqaruv yangi tizim asosida amalga oshiriladi.

Bunda sifatli ta’limni yo‘lga qo‘yish, mehnat bozoridagi talabga moslashish, xalqarolashuvni rivojlantirish, tashqi investitsiyani jalb etishni kengaytirish, SHUni Universitet 4.0 darajaga yetkazish hamda fan, ta’lim, ishlab chiqarish integratsiyasi, aqlli kampus boshqaruvi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, hamkorlik ekotizimi va global qamrov asosiy markazda turadi.

Mazkur mexanizm orqali universitetni Markaziy Osiyodagi soha universitetlari orasida ta’lim “xab”iga aylantirish strategik maqsad qilingan.

Quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirishda ustuvorlik beriladi:

- oliy ta’lim jarayonini raqamli formatga o‘tkazish, raqamli ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish asosida bilimlar transferini ta’minlash, har bir ta’lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda bilim, kompetensiya, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun axborot tizimlarini joriy etish;

- loyihaviy o‘qitish usullarini kengaytirish, jahon miqyosidagi yetakchi tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikka asoslangan innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish hamda innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirish va ishlanmalarni amaliyotga joriy etish;

- talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini yaratish;
- universitetni hududdagi mahalliy jamoalarning ta‘lim, ilm-fan va ijtimoiy-madaniy sohalarida rivojlanishini ta‘minlaydigan markaz sifatida shakllantirish;
- hamkor sifatida biriktirilgan nufuzli xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan kelishuv asosida ta‘lim jarayoniga ularning professor-o‘qituvchilarini jalb qilishni kengaytirish va chet tillarida o‘qitiladigan fanlarni bosqichma-bosqich ko‘paytirish.
- ta‘lim yo‘nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, doktorantura ixtisosliklarini nufuzli xorijiy hamkor universitetlarning tajribasi asosida hamda QS va THE xalqaro reyting agentliklarining fan yo‘nalishlariga moslashtirgan holda ko‘rib chiqish va yangilarini yo‘lga qo‘yish choralari ko‘rish, shuningdek, qo‘shma ta‘lim dasturlarini amaliyotga kiritish;
- QS va THE xalqaro reytinglaridagi o‘rinlar va maqomni kuchaytirish;
- universitet olimlarining ilmiy ishlari natijalarini jahon ilm-faniga, hamkor tashkilotlar ishiga integratsiya qilish, amaliyotga keng joriy etilishini kuchaytirish
- talaba yoshlarning iqtidori va iste‘dodini yuzaga chiqarishga keng imkoniyatlar yaratgan holda ularning munosib karyera qilishlarini qo‘llab-quvvatlash va b.

II. HUQUQIY ASOSLAR

Ushbu yangilanish g‘oyasiga huquqiy asoslar sifatida quyidagi farmoyish hujjatlar keltiriladi:

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4680-sonli Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-oktabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 655-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-60-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son "O'zbekiston 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, inson kapitalini kuchaytirish, yoshlar masalalarida turli yig'ish va selektrlardagi nutqlari va ularda belgilangan vazifalar.

III. UNIVERSITET TUZILMASIDA OPTIMIZATSIYA VA YANGI BOSHQARUV TIZIMI

Universitet tuzilmasida mamlakat oliy ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishlariga kiritilgan o'zgarishlar, xususan, optimizatsiya qilish va yuqoridagi maqsad va vazifalarni sifatli amalga oshirish vazifasidan kelib chiqqan holda quyidagicha o'zgarishlar kiritilishi ko'zda tutildi.

Eng uzoq tarixga ega bo'lgan, kontingent va salohiyat nuqtayi nazaridan yuqori Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakultetini **Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti**ga aylantirish, bu yangilanish mavjud Xitoyshunoslik, Koreyashunoslik, Yaponshunoslik va Turkshunoslik fakultetlari optimizatsiyasi hisobiga amalga oshiriladi. Bunda filologik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va kuchaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish, nazariy bilimlar va amaliyotga yo'naltirilgan loyihalarni bajarish, talabalarni bu faoliyatga keng jalb etish; ilmdan ta'limga tamoyilini keng joriy etish, tarjimonlar tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqishga alohida ahamiyat qaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda, institutda mamlakatlar kesimida Oliy maktablar faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning qoshida ilmiy markazlar faoliyat yuritadi.

Aynan shu optimizatsiya asosida Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti siyosati va turizmi fakulteti **Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti** tarkibiga barcha iqtisodiy blokda masalalar, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar qo'shilgan holatda kiritiladigan kafedralar kesimidagi ichki o'zgarishlar bilan qayta shakllantiriladi. Kafedralar qoshida ilmiy markazlar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Sharq sivilizatsiyasi tarixi va falsafa fakulteti tarkibida Markaziy Osiyo tadqiqotlari, sharq mamlakatlari tarixi va falsafasini o'qitish va o'rganishga qaratilishi, uning ichki tuzilmalaridagi o'zgarishlar manbashunoslik va antropologiya tadqiqotlariga yo'naltirilishi va kadrlar tayyorlashga ham yangi prizmadan qarash talablari qo'yiladi. Kafedralar qoshida ilmiy markazlar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Amaliy fanlar fakulteti bozor ehtiyojlariga munosib yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish bilan bog'liq holda tashkil etilishi, masofaviy ta'limni yo'lga qo'yishda pilot tuzilma sifatida faoliyat yuritishi, shuningdek, kechki va sirtqi ta'lim shakli o'quv jarayonini boshqarishi ko'zda tutiladi. Ushbu fakultetda ham alohida ilmiy, metodik markazlar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Tuzilmada elektron ta'limni, o'quv jarayonini boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan **Registrator ofisining** ishga tushirilishi institut va fakultetlarda ta'limiy va ilmiy ish samaradorligini oshirish, xalqarolashuv va transformatiya jarayonlarini keng amalga kiritishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu kiritilayotgan o'zgartirishlarda ochiladigan yangi lavozimlar uchun mehnatga haq to'lash miqdorlarini berilgan vakolatlarni inobatga olib, yangi lavozimlar mehnatiga haq to'lash miqdorlarini belgilash Kuzatuv kengashi muhokamasi va tasdig'idan o'tkaziladi, shuningdek, mehnat samaradorligiga ko'ra professor-o'qituvchilar va xodimlarni rag'batlantirib borishga e'tibor qaratiladi.

Ushbu konsepsiya ta'limda brendlar, ilmiy an'analar tizimini yaratish asosida **Toshkent davlat sharshunoslik universiteti imijini** mustahkamlash bo'yicha strategik dasturiy vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

IV. UNIVERSITETNING 2024-2027 YILLARGA MO'LJALLANGAN STRATEGIK DASTURI

1. O'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim sifatini oshirish

1) Universitetda o'qitiladigan fanlar dasturlarini TOP-300 talikka kirgan xorijiy oliygohlar ta'lim dasturlari asosida takomillashtirish va ta'lim jarayoniga joriy etish.

2) Ta'lim dasturlarini individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq holda shakllantirish.

3) Ta'lim jarayonini raqamli formatga o'tkazish, raqamli ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish asosida bilimlar transferini ta'minlash.

4) Ta'lim sifati kafolati bo'yicha yetakchi xalqaro agentliklar tajribalari asosida ko'rsatkichlar alohida mezonlarni ishlab chiqish va joriy etish

5) Yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash.

6) Fanlarni zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash darajasini to'liq ta'minlash, universitet kutubxonasini yangi resurslar bilan boyitish choralari ko'rish.

7) Yuqori nufuzli xorijiy va mahalliy universitetlar bilan kredit mobilligi loyihalarini amalga oshirish.

8) Ta'lim dasturlarini mahalliy va xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish.

9) TDSHUda Times Higher Education talablaridan biri bo'lgan fanlararo fanlarni (Interdisciplinary subject) yo'lga qo'yish.

10) Ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida BBA (Bachelor of business administration) MBA (Master of business administration) yo'nalishlarini yo'lga qo'yish, ushbu yo'nalishlarni ommalashtirish uchun bu yo'nalishlarning xorijiy mutaxassislarini TDSHUGa jalb qilish.

11) Ilg'or talabalarining amaliyotlarini hamkor xorijiy oliy ta'lim muassasalari va nufuzli tashkilotlarida o'tkazish ko'rsatkichlarini oshirish.

12) «Top-1000» oliy ta'lim tashkilotlariga universitet professor-o'qituvchilarini malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.

13) TDSHU professor-o'qituvchilari va xodimlarining xalqaro miqyosda onlayn kurslarida o'qishini yo'lga qo'yish (Cousera courses).

14) Universitet bitiruvchi talabalarining bandligini ta'minlash va muammolarini hal etish maqsadida turli davlat va xususiy tashkilotlar bilan tuziladigan memorandumlarni ko'paytirish.

15) Universitetda mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'qitishni kengaytirish, o'qish to'liq xorijiy tillarda olib boriladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari, fakultetlar salmog'ini oshirib borish.

16) Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish,

17) O'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish;

18) Talabalar bilimini baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisligini ta'minlash, jumladan, baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish;

19) Fanlarni o'zlashtirishda talabalar orasida sog'lom raqobatni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

20) Fan dasturlarining 5 ta komponentdan iborat bo'lishini ta'minlash: Professionallik, Gender tenglik, Atrof-muhitga asoslanganlik, Barqarorlik, Insoniy qadriyatlarga asoslanganlik (Professionalism, Gender equality, Environment-based, Sustainability, Human values-based).

21) Magistratura talabalarining yuqori saviyada ilmiy izlanishlar olib borish, pedagogik faoliyat yuritish, boshqaruv, tanqidiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun mazkur ta'lim bosqichi o'quv reja va dasturlarini muntazam takomillashtirib borish.

22) O'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish tartibini soddalashtirish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanishni kengaytirish.

23) Imkoniyati cheklangan talabalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlarini ko'paytirish va ularning sifatini yaxshilash, ta'limda inklyuziv jarayonlarni rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish.

24) Dars mashg'ulotlari bo'yicha talabalar fikrini o'rganish (feedback) hamda o'zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilab borish.

25) Fan sohalari bo'yicha professor-o'qituvchilarning kasbiy muloqot maydonchalarini yaratish, ta'lim sifatini ta'minlash jarayoniga talabalarni keng jalb etish hamda "tyutorlik" tashkiliy-metodik yordam tizimi orqali talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish

26) Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish.

2. Universitetda ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish

1) Universitetda ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 55 foizga yetkazish.

2) Fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag'batlantirish.

3) Xorijdagi vatandoshlar ishtirokida ilm-fan sohalarida ilmiy loyihalarni amalga oshirish.

4) Professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy daraja va unvonlarga ega xodimlar yoshi nuqtayi nazaridan optimal nisbatiga erishish uchun universitetda yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 40 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushini kamida 35 foizga yetkazish.

5) Ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini oshirish.

6) Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni ilmiy faoliyati natijalariga ko'ra rag'batlantirish.

7) Dunyodagi eng ommabop internet platformalariga universitetga biriktirilgan turistik obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar va sharq tillaridagi kontentlarni joylashtirish.

8) "Scopus"/"Web of Science" bazalari bo'yicha 5+ xirsh indeks ko'rsatkichiga ega professor-o'qituvchilar sonini oshirishga erishish.

9) "Sustainable Development Goals" 17 ta maqsadi bo'yicha "Scopus"/"Web of Science" bazalari indekslanadigan jurnallarda maqollar chop etishga erishish.

10) Universitet ilmiy jurnallarining Scopus, ScienceDirect va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash.

11) Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni hamda ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishni ko'paytirish hisobidan xo'jalik shartnomalari hisobiga budjetdan tashqari mablag'larni jalb etish samaradorligini oshirish.

12) Ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 4.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish

13) Ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tegishli institutlari hamda nufuzli xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yish, bunda mentorlik modelidan keng foydalanish.

14) Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlari faoliyatini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, ilmiy kengashlar va himoyalar tizimini xalqaro tajribaga muvofiqlashtirish choralarini ko'rish.

15) Universitet ilmiy markazlari faoliyatini transformatsiya va xalqarolashuv talablariga muvofiq tashkil etish, ularni natijalariga ko'ra rag'batlantirib borish mexanizmlarini takomillashtirish.

16) Talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga keng jalb etish, startag loyihalari va boshqa turli tanlovlarni maqsadli tashkil etish, yoshlarni rag'batlantirish choralarini ko'rish.

3. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish

1) Universitetda xorijdagi yetakchi turdosh ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish orqali xalqaro darajadagi ta'lim muhitini yaratish.

2) Xalqaro reyting tizimlarida «Top-1000» oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxatiga kirishga erishish.

3) Universitetda tahsil oladigan xorijiy talabalar salmog'ini oshirish.

4) Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining yetakchi professor-o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etish.

5) Universitet hamkorligida xorijiy mamlakatlarning fondlari, xalqaro tashkilotlar va elchixonalarining dasturlarida ishtirok erish orqali xorijiy investitsiya va grant mablag'larini jalb etish.

6) TDSHuning xalqaro darajada imijini oshirish maqsadida domiy ravishda BRM doirasida jahondagi global muammolar va zamonaviy tendensiyalarga bag'ishlangan fanlar, qisqa muddatli fakultativ kurslar, ma'ruzalar, ilmiy seminarlar tashkil qilib borish, shuningdek xalqaro darajada tashkil etiladigan kongresslarda TDSHuning ishtirokini ham yo'lga qo'yish.

7) QS va THE xalqaro reytinglariga kirish bo'yicha tanlab olingan 18 nafar OTMlarning xalqaro reytinglardan metodik yordam olishi bo'yicha vazirlik tomonidan QS va THE xalqaro reyting agentliklari bilan shartnoma tuzish.

4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash

1) "O'zbekiston – 2030" strategiyasida yoshlar bilan ishlash, ma'naviy va ma'rifiy masalalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi asosida talaba-yoshlarning yurtsevarlik tuyg'usi, vatanni himoya qilish ruhiyati, yurt sha'ni uchun bir musht bo'lib birlasha olish hissini milliy manfaatlarimizga uyg'un ravishda o'stirib borish.

2) Universitetda o'tkazilayotgan tadbirlarning mazmun-mohiyati, mundarijasini qaytadan inventarizatsiya qilish, bir qolipda, talabani fikrlashga chorlamaydigan tadbirlardan voz kechish, sohani sifat bosqichiga olib chiqish uchun talabalarning ruhiy-emosional, ma'naviy-ma'rifiy holatini umumiy tashxisiga asoslanib milliy kontentlarga tayangan holda uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida yagona ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish.

3) Universitet talaba-yoshlari o'rtasida o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy-ma'rifiy ildizlarini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda ajdodlar merosiga hurmat tuyg'usini o'stirish borasida yangicha yondashuvlarni joriy qilish.

4) Ma'furaviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash.

5) Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-ma'furaviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini yoritish, turli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borishga doir ishlarni takomillashtirish.

6) Talabalarni ijtimoiy himoya qilish, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.

5. Universitet moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash va investitsiyalarni jalb etish

- 1) Universitet moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash va investitsiyalarni jalb etish
- 2) Byudjet va nobyudjet mablag'lardan samarali foydalanishni muntazam ta'minlash
- 3) Universitetda energiya tejamkorligini ta'minlash
- 4) Universitet talabalarini yotoq joy bilan to'liq ta'minlash va mavjud sharoitlarni yaxshilash, TTJni kapital ta'mirlash va yangi DXSh asosidagi TTJning qurib ishga tushirish.
- 5) Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish va yangilash maqsadida zamonaviy tizimlarni yo'lga qo'yish sharoitlarini yaratish
- 6) Universitet hududida talabalar va professor-o'qituvchilar xavfsizligini ta'minlash hamda raqamlashtirish tizimini takomillashtirish.
- 7) Talabalar uchun yangi ijtimoiy hududni yaratish, mavjud eski binoning rekonstruksiyasini amalga oshirish.